



**ERKIN VOHIDOV IJODIDA POETIK LEKSEMALARIDAN
FOYDALANISHNING O‘ZIGA XOSLIGI**

Diyora Begjigitova Abdimannob qizi

Guliston Davlat universiteti magistranti

diyoraazizova311@gmail.com

Annotatsiya

Mazkur maqolada shoir ijodining o‘ziga xosligi, ijodkorning o‘z asarlaridagi poetik leksemalardan yangicha uslubda foydalaganligi, shu bilan birga boshqa ijodkorlarning namunalaridan ajralib turishi ko‘rsatib beriladi. Bundan tashqari poeziya, poetika, poetiklik, poetik lingvistika terminlariga ham keng ko‘lamda to‘xtalib o‘tilgan.

***Kalit so‘zlar:** poeziya, poetika, poetiklik, poetik lingvistika, she‘riyat, she‘riy sarlavhalar, okkazional so‘zlar*

**THE UNIQUENESS OF THE USE OF POETIC LEXEMES IN ERKIN
VOHIDOV'S WORK**

Diyora Begjigitova Abdimannob qizi

Master's student at Gulistan State University

diyoraazizova311@gmail.com

Abstract

This article shows the uniqueness of the poet's work, the creative use of poetic lexemes in his works in a new way, and at the same time, his distinction from the examples of other creative people. In addition, the terms poetry, poetics, poeticity, and poetic linguistics are also extensively discussed.

Keywords: poetry, poetics, poeticity, poetic linguistics, poetry, poetic titles, occasional words





Biz shu narsani takidlashimiz kerakki, she'riyat olamiga qadam qo'yarkanmiz poeziya, poetika, poetik leksika, poetiklik nomli tushunchalarga duch kelamiz, bular bir-biridan farq qilsa-da, bir-biridan ayro tasavvur qilib bo'lmaydi, chunki ular har doim bir birini to'ldirishga xizmat qiladi. Poeziya (she'riyat) bu so'zlar keng qamrovli, u o'z ichiga poetiklik va poetik leksika kabi tushunchalarni oladi. Badiiy asar tilining badiiylik, obrazlilik va ta'sirchanlik ko'lami janr xususiyatlariga ko'ra, bir xil emas. Bu vositalar nisbatan poeziya tilida bo'rtibroq turadi.

Ma'lumki, biz shoir ijodiga nazar solar ekanmiz uning ijod gulshani qanchalar rang-barang va betakror ekanligining guvohi bo'lamiz. uning so'z qo'llash mahorati hamda she'rlari orqali ma'lum mavzuni teran yoritib berishi barcha kitobxonni o'ziga jalb etadi. Iste'dodli shoir o'zining iliq lirizm va hayotbaxsh romantika bilan sug'orilgan o'ynoqi va ravon poeziyasi, o'tkir publitsistik maqolalari, dramalari, tarjima asarlari teran ilmiy tadqiqotlari bilan xalqimiz orasida keng hurmatga sazovor bo'lgan sevimli adiblardan biridir. Erkin Vohidov she'riyatining asosiy g'oyasini vatanparvarlik, o'zbek xalqiga bo'lgan cheksiz mehr-muhabbat, mustaqillik, erkinlik, insoniylik, ona vatanga sadoqat, vafodorlik va boshqa shu kabi xususiyatlar tashkil etadi. Bu go'zal she'riyat haqida o'ylaganimizda ko'z oldimizdan betakror tashbihlar, latif tuyg'ularga yo'g'rilgan quyma satrlar o'ta boshlaydi. Uning "O'zbekim" (1968) qasidasidan olingan quyidagi misralar shoirning butun ijodiyoti uchun xos bo'lgan vatanparvarlik, ona xalqiga bo'lgan sadoqat va o'zbek millatiga bo'lgan tuyg'usini ko'rishimiz mumkin:

*Men Vatanni bog' deb aytsam,
Sensan unda bitta gul.
Men Vatanni ko'z deb aytsam,
Bitta mujgon o'zbekim.*

Shoirning Vatan, o'zbek xalqi mavzusida yozgan misralari doimiy hamrohimiz bo'lib qoladi:

*Bu qasidam senga, xalqim,
Oq sut-u tuz hurmati,
Erkin o'g'lingman, qabul et,
O'zbekim, jon o'zbekim.*

Bunga o'xshash durlar shodasini maroq bilan yana davom ettirishimiz mumkin. Yoshlar ongini shakllantirishda g'oyaviy, axloqiy, ma'naviy-ma'rifiy, nafosat ta'sir





kuchini o'zida mujassamlashtirgan badiiy asarga xos tasviriy vositalar, o'ziga xos xususiyatlar o'quvchiga tushunarli bo'lgan taqdiridagina uning tarbiyaviy ahamiyati, ta'sir kuchi to'liq namoyon bo'ladi. Buning uchun esa badiiy asar tilini lisoniy tahlil qilmasdan turib, ko'zlangan maqsadga erishish qiyin. Badiiy asar tilini ongli ravishda tahlil qilish ma'lum bir asar mazmunini, uning g'oyaviy mohiyatini, yozuvchining ijodiy mahorati va g'oyaviy yo'nalishini chuqur o'zlashtirish imkonini beradi. Yuqoridagi matnlarda ham poetiklikning yuksak ko'rinishlari mavjud. Shunga ham alohida e'tibor qaratish lozimki, poetiklikni ifodalashda alohida poetik vositalar shart bo'lmasligi mumkin. Zero, ijodkorning yondashuvi asosida so'zlarning mukammal berilishi poetiklikni ta'minlaydi. Yuqoridagi misrada ham *mujgon* so'zidan tashqari alohida buyoqdorlikka ega bo'lgan yoki keying misrada bo'yoqdorlikning biroz yuqori ko'rsatuvchi *qabul et fe'*lining berilishi kabi vositalardan tashqari elementlar ko'zga tashlanmasligi mumkindir. Ammo bu misralarda shunday poetiklik, obrazlilik, emotsional-ekspressivlik mavjudki, bu jihatlar misralarning mukammalligini ta'minlagan. Shu bilan birga, har bir matn murakkab tuzilish va mazmun mundarijasiga ega bo'lib, u og'zaki hamda yozma ijod na'munasi hisoblanadi. Har bir matn ma'lum bir mazmunni tashiydi va o'z xususiyatiga ko'ra turli xil ma'lumotlarni yetkazadi. Har xil xabarlarni yetkazishiga ko'ra matnlar badiiy matn, publitsistik matn, ilmiy matn, rasmiy matn shaklida bo'ladi.

Leksikologiyada tilda mavjud bo'lgan barcha so'zlar, ya'ni o'sha tilning lug'at boyligi haqida so'z yuritadi. Tildagi leksik (o'z va o'zlashma) qatlamlarni lingvistik tadqiq etish leksik-semantik taraqqiyot qonuniyatlarini belgilashda o'ta muhimdir. Leksika tarix, madaniyat, fan va xalqning ijtimoiy-iqtisodiy rivoji bilan o'zaro bog'liq bo'lib, ilmiy tahlilda ularni hisobga olmasdan turib, so'z ma'nolarining o'zgarish manbalari va sabablarini aniqlash mushkul. Ana shu nuqtai nazardan o'zbek tili leksikasini o'z qatlam va o'zlashgan qatlam bo'lish lozim. O'zbek adabiy tilining taraqqiyot bosqichlariga nazar solsak, mazkur so'zlar turli davrlarda xilma-xil ijtimoiy sabablar tufayli o'zlashganligiga guvoh bo'lamiz. Masalan, fors-tojikcha leksemalar o'zbek va tojik xalqlarining qadimdan yonma-yon yashab, ijtimoiy va madaniy munosabatda bo'lib kelganligi natijasida, arabcha istilohlar esa, asosan kitobiy til va fors-tojik tili, Shuningdek, qisman og'zaki nutq orqali kirib kelgan. O'zlashma so'zlar o'zbek adabiy tilida o'zlashtiruvchi til tomonidan faol o'zlashtirilgan obyekt maqomiga ega bo'lgan. Bunday leksemalar she'riyatda anchayin sermahsul hisoblanadi. Bugungi kunda ham ko'plab o'zlashmalar poetik leksika sifatida qaraladi. Bu jihatdan poetik leksikani B.Umurqulov quyidagicha tasniflaydi:





1. O'zbek poetik leksikasining asosiy negizini asl turkiy so'zlar tashkil qiladi. Turkiy so'zlar o'zbek poeziyasida asrlardan buyon ishlatilishi bilan birga, tilning qonun-qoidalariga muvofiq yangi so'zlar yasalishi uchun o'zak bo'lib, o'zbek poeziyasida turkcha so'zlarning yanada ko'payishini ta'minlaydi. Turkiy so'zlar o'zbek poeziyasining dastlabki davrlarida kam qo'llanilgan. Chunki arab tili asosiy til hisoblanib, badiiy asarlar shu tilda yozilgan. Asl turkiy so'zlarning poeziya tilida keng iste'moli A.Navoiy ijodiyoti bilan bog'liqdir. Hozirgi o'zbek poeziyasi tilida bitmoq, bol, dudog', inju, nogoh, ochun, og'u, tegra, chechak, erur, yalov, yor, o'shal, qalb kabi turkiy so'zlar faol qo'llanilmoqda.

2. Juda qadimdan buyon fors-tojiklar bilan ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy va madaniy aloqalar, territorial yaqinlik natijasida o'zbek poetik leksikasiga fors-tojik tilidan ko'pgina so'zlar kirgan. Fors-tojik tilidan o'zbek tiliga kirib, o'zbek poeziyasida qo'llaniladigan so'zlar ko'proq ot turkumidagi so'zlardir. Masalan, abr, anduh, afg'on, ashk, bo'sa, bo'ston, gardun, giryon, gulzor, gulruh, gulro', gulshan, diyor, kamand, kishvar, mahvash, mahliqo, mohtob, mujda, nigoh va boshqalar.

3. VII-XIII asrlarda o'rta Osiyoning arablar tomonidan istilo qilinishi madaniy hayotga, jumladan, tilga ham ta'sir qildi. Arab tilining keng yoyilishi davlat, maktab, madrasa ishlarini arab tilida olib borish, badiiy asarlar shu tilde yozilishi natijasida o'zbek poeziyasi tiliga ko'pgina arabcha so'zlar kirib, o'zlashib ketdi. Jumladan: abad, azim, ayyom, anbar, andalib, ag'yor, bashar, bahr, boqiy, vasl, visol, zakiy, izhor, ishq, kabir, malak, mahzun, nasim, oraz, sabo, sanam, uzor, falak, fano, xilqat, g'anim, g'orat, hajr va boshqalar arab tilidan o'zlashgan bo'lib, hozirgi o'zbek poeziyasi tilida bulardan ayrimlari aktiv qo'llanilsa, ba'zilar nisbatan arxaiklashmoqda. Shunga ko'ra, fors-tojik, arab tillari o'zbek poetik leksikasining manbalaridan biri hisoblanadi.

4. O'zbek poetik leksikasi so'z san'atkorlari tomonidan ijod etilgan yangi so'zlar va yangi yasamalar bilan boyib boradi. Hozirgi o'zbek poeziyasi tilida ko'proq poetik uslub uchun xos bo'lgan shaxs otlari: yelkadosh, oyoqdosh, o'lkadosh, qadamdosh, g'ururdosh, shuningdek, baxtnoma, sharafobod, nurobod, nurxona va boshqa ko'pgina so'zlar qo'llanilmoqdaki, bunday leksik vositalar asosan, keyingi yillarda poeziya tiliga kirib o'zlashmoqda.

O'zbek tili leksikasi tizimidan o'rin olgan o'zlashmalarning kattagina qismi o'zlashtiruvchi tilga xos so'z yasash, so'z o'zgartirish va shakl yasash vositalari negizida o'z shaklini o'zgartirgan. Erkin Vohidov o'z she'rlarida ko'plab o'zlashma so'zlardan foydalangan, bu esa shoir she'rlarining o'ziga xos ta'sirchanligini oshirishga xizmat qilgan. Jumladan, shoir o'z poeziyasida arabcha ruscha va fors-





tojikcha so‘zlardan keng foydalangan. Misol tarzida shoirning “*Kamtarlik haqida*” nomli she‘rini olaylik:

*Garchi shuncha mag‘rur tursa ham,
Piyolaga egilar choynak.
Shunday ekan, manmanlik nechun,
Kibr-u havo nimaga kerak?
Kamtarin bo‘l, hatto bir qadam
O‘tma g‘urur ostonasidan
Piyolani inson shuning - chun
O‘par doim peshonasidan.*

Ushbu she‘rdagi garchi forscha “agarchi” bog‘lovchisining qisqa shakli., mag‘rur (a. aqldan ajralgan, aldangan; o‘ziga bino qo‘ygan, kekkaygan; O‘z qadr-qimmatini, g‘ururini saqlagan; g‘ururli. 2. Asossiz yoki ortiq darajada g‘ururli bo‘lgan, o‘zini Shunday tutadigan; kekkaygan; manman. 3. Ko‘chma: turishtuzilishi, ko‘rinishi viqorli.; piyola f. [yun. phiale – suv ichiladigan yassi kosacha] Tubidan yuqoriga tomon kengayib boradigan, kosadan kichik, taglikli idish (asosan choy ichish uchun ishlatiladi. choynak [r. chaynik – choy idish] choy damlab ichiladigan, jo‘mrakli va dastali idish, uy-ro‘zg‘or asbobi.; kibr (kibr-u havo- o‘ziga ortiqcha baho berish, manmanlik) a. mag‘rurlik, kattalik, takabburlik; kamtarin (kamtar) f. ozroq, kamroq, siyrakroq; maqtanishni istamaydigan, o‘zini boshqalardan past oladigan, mag‘rurlanmaydigan; juda kamtar va itoatkor; qadam [a. oyoq kafti, tovon; oyoq, odim] 1. Yurish jarayonidagi har bir oyoq tashlash, oyoq bosish; odim; 2. Har bir qadam oralig‘iga teng masofa, oraliq masofa; 3. Ko‘chma: ish-faoliyat, rivojlanish va sh.k.da olga siljish, ilgarilash; 4. Ko‘chma: biror joy, tomonga qaratilgan, yo‘nalgan yurish; tashrif; 5. Ko‘chma: ish-faoliyatdagi har bir xatti-harakat; amal; g‘urur [a. jaholat; xom (puch) xayol; manmanlik, mag‘rurlik; kibr-havo] 1. Insonning o‘zqadr-qimmatini bilish, uni hurmat qilish hissi; izzat-nafs. 2. Faxrlanish, 1mamnunlik tuyg‘usi; faxr, iftixor. 3. Faxrlanishga asos bo‘ladigan narsa, kimsa va sh.k.lar. 4. Kibrilanish tuyg‘usi, mag‘rurlik, kibr-havo; ostona [f. kiraverish, bo‘sag‘a; arafa; shoh saroyi; daxma] 1. Eshik, darvoza chorcho‘pining ostki ko‘ndalang yog‘ochi; binoga, hovliga kiraverishdagi yerga ko‘ndalang yotqizilgan yog‘och, taxta, xarsang va sh.k.; bo‘sag‘a. 2. Ko‘chma: uy, xonadon, dargoh. 3. Ko‘chma: qishloq yoki shaharga kirverishdagi





joy, bo'sag'a. 4. Ko'chma: biror voqea yoki hodisaning boshlanishiga yaqin qolgan payt; arafa. 5. Geogr. Daryo ostidagi, ba'zan suvdan chiqib ko'rinib turadigan va suv oqimini tezlashtirib, Misollar tahlilida kemalar qatnovini qiyinlashtiradigan balandroq joy, do'nglik. inson [a. odam] 1. Odamzod, bashar. 2. Har bir yakka shaxs; odam. 3. Kimsaga (odatda, salbiy munosabatli) murojaat shakli.; peshona [f. manglay, peshona] 1. Anat. Yuzning qoshdan sochgacha bo'lgan qismi, manglay. 2. Ko'chma: diniy tasavvurlarga ko'ra qismat, taqdir. 3. Bisot, bud-u Shud, bor-yo'g'i.

Misollar tahlilidan ko'rinib turibdiki, E.Vohidov asarlari leksikasi turli ma'no doiradagi leksemalar tizimidan iborat bo'lib, qamrab olgan butun hayotning deyarli barcha sohasiga oid tushunchalarni aks ettiruvchi leksik birliklar qo'llanganligi bilan ajralib turadi. Shuningdek, *shoir she'rlarida latif, kitob, sarhisob, ravon, past-u baland, rishta, misra, ibtido, intiho, iztirob, dil, she'r, gulob, naqqosh, sarlavha, Shu'la, koshona, parvona, qasd, sabo, parivash, hilol, qissa, qalb, sohibjamol, barkamol, visol, xushhol, gulshan, poymol, timsol, ahvol, zinhor, alhol, daf'atan, chor atrof, ma'yus, bemajol, alqissa, iqbol, sado, parishon, harorat, navbahor, g'oyibona, bahor, gul, dom, oshiq, hijron, po'lat, bomba, nuqra, muqaddas, mo'tabar, muborak, madh, fusunkor, girdob, alvon, mohir, mehr, mahorat, ilm, olim, amal, mashaqqat, Shuur, tafakkur, poyezd, meridian, pero, million, milliard, samolyot, traktor, teleskop, atom, orden, pochta, informbyuro, gospital, razvedka, granata, avtomat, polk, soldat, kvartal, eshelon, sirena, projektor, gorsovet, kabel, vokzal, front, tank, minut, grajdan, ZAGS, byuro* va boshqa shu kabi arab, fors-tojik va rus tili orqali o'zlashgan so'zlar qo'llanilganligini kuzatish mumkin.

Ul ruxi bayzolin savdolimdan qil qiyos,
Ul dili xoroligin **shayd**olimdan qil qiyos,
Zuhd eli taqvin **mug'a oshn**olimdan qil qiyos,
Voizin kufrin banim rasvoligimdan qil qiyos,
Anda sidq o'lsaydi ban taqvo shior etmasmidim.

(Erkin Vohodov, Fuzuliy g'azaliga muxammas)

She'rlarning sarlavhasida ham o'zlashgan qatlamga oid leksemalarni kuzatish mumkin: "Manzara", "Ekskavator", "Majnuntol", "Olimlar va shoirlar", "Surat", "Firoq haqida", "Kosmonavt va shoir", "Asablar", "Inson va fursat" va boshqa shu kabi. Asar tilining betakrorligi uning uslubiy-semantik o'ziga xosligi bilan belgilanadi. Muallifning badiiy salohiyati, so'z qo'llash mahorati, voqea-hodisani "teranlik bilan tasvirlashi, ruhiy kechinma, psixologik holatlarning san'atkorona ifoda etilishi asar





tilining o'ziga xosligini ta'minlagan. U voqea-hodisalarni butun mohiyati bilan yoritadi, uning voqelikka xolisona yondashuvi asar tiliga tabiiylik va asar matnining uslubiy mukammalligini ta'minlagan. Xulosa qilib aytganda, Erkin Vohidov o'z she'rlarida o'zlashgan qatlamga oid leksemalarni qo'llash bilan chegaralanmaydi, balki badiiy matn talabi bilan ulardan o'z o'rnida foydalanadi. Bu esa she'rda o'ynoqlik, ta'sirchanlik kabi xususiyatlarni ta'minlaydi

Bunday misralarda tarixiy so'zlarni o'rni alohida ahamiyat kasb etgan. Tarixiy so'zlar bugungi kun jonli tilimizda, balki badiiy uslubdan tashqari uslublarda faol qo'llanilmaydi. Shuning uchun ham bunday so'zlarda badiiy adabiyotda, badiiy asarlarda davrni yorqinroq ko'rsatish uchun qo'llaniladi. She'riyat nutqning oliy ko'rinishi bo'lganligi sababli bunday vositalarda o'rinli va keng foydalanish mumkin. Shuning uchun ham shoirlar she'riy nutqning jozibadorligini oshirish, emotsionalligini ta'minlash maqsadida bunday so'zlarga murojaat qilishadi. Shuningdek, zabardast shoir Erkin Vohidov ijodida ham buning nodir ko'rinishlarini uchratish tabiiy hol.

*Shams – dil taftingdadur,
Sayyoralar kaftingdadur,
Keng jahon zabtingdadur,
Bog 'bon o 'zing, posbon o 'zing*

(Erkin Vohidov, "Inson qasidasi")

Bunda tarixiy leksema sifatida shams so'zi qo'llanilgan. Shams leksemasi tarixiy so'z sifatida zamonaviy she'riyatda ko'p murojaat qilinadi. She'riy nutqning poetikligini ifodalaydi. Shu o'rinda bu so'zning quyosh sinonimi bilan almashtirish kutgan natija bermaydi. Shuni ham yodda tutish lozimki, bir so'zning o'zi she'r poetikligini bera olmasligi mumkin. Bunda morfologik birliklarning ham xizmatini ko'rish mumkin. *taftingdadur* so'zi tarkibidagi *-dur* shakli ham poetiklikni ta'minlagan va misralar oxirida takrorlanadi. *Dil* so'ziga poetiklikni ifodalaydi. Bularning barchasi birgalikda she'rning poetikligini ifoda etgan. Bunda qo'llanilgan shams leksemasi tarixiy leksema sifatida qaraladi.

Shoir ijodida poetiklikni ta'minlovchi leksemalarning turli variantlarini uchratish mumkin. Yuqoridagi misrada tahlilga tortilgan shams leksemasi tarixiylik jihatdan alohida qiymat kasb etgan.

Poetik leksemalar sinonimlik bilan bir qatorda antonim sifatida ham she'riy misralarda keng qo'llaniladi:





Chog‘roq bo‘yli edi
“Oqsoqol” o‘zi,
Qaddida salobat bor edi lekin.
Yonib turar edi ko‘kimtir ko‘zi,
Sokin gapirardi,
Yurardi sekin.

(Erkin Vohidov, “Oqsoqol”)

Misralarda qo‘llanilgan *chog‘roq* va *salobat* leksemalari kontekstual antonimni hosil qilgan. Misrada poetilikni ta‘minlashga xizmat qilgan.

Bunda oq birla qaro,
Zulmat, ziyo, shoh-u gado,
Jang qilurlar doimo,
Ul yon o‘zing, bul yon o‘zing.

(Erkin Vohidov, “Inson” qasida)

Tarixan ma‘lumki, oq va qora leksemalari zamirida doimo poetiklik ifodalanadi. To‘g‘ri, birinchi qarashda bu leksemalar umumestemol leksemalar sifatida ko‘rinishi mumkin, ammo bu rang bildiruvchi leksemalar ramz sifatida keng qo‘llanilgani sababli ko‘pincha poetiklikni o‘zida namoyon qilib keladi. Kontekstdan tashqarida bunday belgiga ega bo‘lmasligi mumkin. Misrada kelgan *zulmat*, *ziyo* leksemalari bu ikki leksemaga sinonim sifatida qo‘llanilgan va ularda poetiklik yaqqol namoyon bo‘ladi. Shu sababli bu ikki leksemani poetik leksika sifatida olish to‘g‘ri bo‘ladi. Bunda Shoir – Erkin Vohidovning mahoratini ham ko‘rish mumkin.

Tarixiy leksemalarda poetikning ifodalanishi yuqorida ta‘kidlandi. Shunday ekan, tojdor, qul leksemalari she‘riy nutqda poetiklik ifodalaydi:

Xormisan yo gulmisan,
Tojdormisan yo qulmisan,
Chug‘zmisan, bulbulmisan,
Nodon o‘zing, xushxon o‘zing

(Erkin Vohidov, “Inson” qasida)

Umuman, she‘riy parchada qo‘llanilgan barcha leksemalar poetiklikni ifodalashga xizmat qilgan. Qaysidir jihati bilan poetik leksikalarni tashkil qiladi.

She‘riy misralarda ramziy leksemalarga keng o‘rin beriladi. Ramziylik





tushunchasi mumtoz adabiyot tushunchasi bilan birga yursa-da, uning imkoniyatlari keng. Chunki, she'riyatga chegara qo'yib bo'lmaydi, chunki shoir his-tuyg'ularini qaysi so'z mukammal va maromida o'quvchiga yetkazishi mumkin bo'lsa, she'riyatga olib kiradi. Shuning uchun uchun ham Erkin Vohidov ijodida ramziy leksika faol qo'llanilgan. Bunday leksemalar sirasiga *sarv* (qad-qomat), *sunbul* (soch), *g'uncha* (lab), *gul* (yor, yuz), *mahvash*, *mohitobon*, *mohtob* (yor), *andalib* (oshiq), *kabutar* (yaxshilik) va boshqa shu kabi leksemalarni kiritish mumkin.

Lablaridan bo'sa izlab,
Jon suvin topdim bu kech.
Sarv tagida baxtli bo'ldim,
Ham bu baxtga yor **sarv**.
Soch-u hadding yodin Erkin,
Gar unutsa bir nafas,
Unga **sunbul** sirtmog' ulsin,
Mayli, bo'lsin dor **sarv**.

(“Sarv”, Erkin Vohidov)

Erkin vohidov “Sarv” nomli she'ridan olingan. Ushbu g'azalda *sarv* so'zini ijodkor **o'n besh marta** qo'llagan, shulardan *bash* o'rinda ko'chma ma'noda yor timsolida, qolgan o'rinlarda esa o'z ma'nosida qo'llagan. Bu daraxtga she'riyatda ko'p bora murojaat qilinadi. Bu o'simlik turi bo'lishi bilan birga mumtoz adabiyotda ramziy ma'noga ega. Chunki, chiroyli shaklda o'sishi tufayli Sharq she'riyatida majoziy ma'noda *sarv* qomat yor obrazini tasvirlashda ko'p qo'llanilgan. Bu esa shoirning so'z qo'llash mahoratini yanada ochib bergan. Qo'llanilgan *lab*, *bo'sa*, *jon suvi*, *sarv*, *haddi*, *yod*, *gar*, *sunbul* so'zlari alohida bo'yoqdorlikka ega. Shuning uchun ham bu leksemalar g'azalning poetikligini oshirishga, taminlashga xizmat qilmoqda. Shu bois bunday leksemalar poetik leksika hisoblanadi.

Bular orasida *sarv* so'zi alohida ramziylikka ega. Ta'kidlanganidek, mumtoz adabiyotda *sarv* yorning qomatiga ishora qiladi. Shuningdek, g'azallarda ma'no ko'chishi asnosida yorga ko'chishi ham mumkin. Shoir tilning bu imkoniyatidan ham o'rinli foydalanadi. Misrada keltirilgan ***Sarv tagida baxtli bo'ldim*** va ***Mayli, bo'lsin dor sarv*** jumllarida *sarv* so'zi o'z ma'nosida – daraxt ma'nosida qo'llanganligini ko'rish mumkin.

okkazional so'zlar: ya'ni ijodkor o'z ijodida novatorlik asosida o'z xarakteridan kelib chiqib yaratadi. Bunday so'zlarga Erkin Vohidov ijodida uchraydigan **Kavkabiston**, **shu'laafshon** so'zlarini misol keltirishimiz mumkin.





Ma'rifatning shu'lasiga
Talpinib zulmat aro,
Ko'zlaringda oqdi tunlar
Kavkabiston, o'zbekim.

(Erkin Vohidov, "O'zbekim")

Sof poetik so'zlar: *alvido, asriy, aro, beshak, butkul, vido, diyor, zakiy, zavol, zarrin, lol, polon, nigoron, nisor, nido, nigoro, nigoh, otash, sabo, samo, sarxush, siyna, shodon, fido, ulug'vor, hayolot, xotirot, xushnud*

Asta barg ostida tinglab,
Yotgan ermish sho'x **sabo**,
G'uncha bulbuldan muhabbat
Dars olgan chog'da

So'zlarning poetik formalari: *gar* (agar), *lek* (lekin), *ila* (bilan), *abad* (abadiy), *nechun* (nima uchun), *netmoq* (nima qilmoq), *nedur, nadur* (nimadir), *bu kun* (bugun), *qayga* (qayerga), *albat* (albatta) va boshqalar

Barg ostidan muloyim
Boqqan iboli g'uncha,
Ne sirni saqlagaysan,
Bag'ring **nechun** tuguncha

(Erkin Vohidov, "G'uncha")

So'zlarning morfologik variantlari: *aytajak, aylagil, borur, borajak, topgay, yozajak, olajak, olgay, kelmish, topmish, qolgali, borgali, borarkan, yurarkan* va boshqalar.

Sevgini tortib **bo'lurmu**
Toshu tarozu bilan,
Mehrni o'lchab bo'lurmu
Zar bilan, inju bilan?

(Erkin Vohidov, "Sevgini tortib bo'lurmu...")





Bunday berilishlar poeziyada ko‘p uchrashi bilan birgalikda, shoir ijodida ham bunday leksik birliklardan keng foydalanilgan va bu leksemalar alohida imkoniyat kasb etgan.

Tilda shunga alohida e‘tibor qaratish lozimki, poetik leksika va poetiklik tushunchalari farqlanadi. Chunki bu alohida-alohida tushunchalarni beradi. To‘g‘ri, poetiklik tushunchasining shakllanishida poetik leksika alohida o‘rin tutadi, ammo bu poetiklik degani emas. Poetiklik keng tushuncha poetiklikni shakllantiruvchilar esa ularning vositalari sanaladi. Bunday emotsional-ekspressivlikka ega bo‘lgan leksemalar she‘riy matnlarda qo‘llanilib, poetiklikni shakllantirganligi – poetiklikni bera olganligi sababli poetik leksika sifatida qaraladi. Shuning uchun ham poetiklik va poetiklikni bera oluvchi yoki poetiklikka xizmat qiluvchi vositalarni farqlay olish lozim bo‘ladi. Masalan, B.Umurqulov ham bunday tushunchalarni farqlagan va shunday fikr keltiradi: “Poetik matnlarni kuzatish shuni ko‘rsatadiki, matn asosan, umumslubiy so‘zlar negizida tuzilgan bo‘lib, poetik-emotsional fikr bor. Bunday matndagi so‘zning qimmatini poetik nutq jarayonida ifodalagan poetik tushuncha bilan o‘lchanadi. Ana shu poetik tushuncha poeziya tili bilan so‘zlashuv tili orasidagi keskin farqni ko‘rsatadi. Bu esa poetiklikdir”. Hamda Tushunchaning haqqoniy ifodasini berish uchun Erkin Vohidovning “*O‘lka*” she‘ridan misol keltiradi:

*Jilmayadi o‘zida yo‘q shod,
Yangi oy ham ketmay qoshingdan.
Etak- etak olib koinot,
Yulduzlarni sochar boshingdan.
(E. Vohidov, “O‘lka”)*

she‘riy parchada poetik so‘zlarning qo‘llanilmaganligini, ammo poetiklik mavjudligini aytib o‘tadi. Shundan ko‘rinadiki, poetiklik va poetik leksika tushunchalari alohida hodisalar hisoblanadi.

E. Vohidov asarlarida uchraydigan poetik so‘zlar: *ichra, ulug‘vor, nigoh, moviy, hilol, falak, o‘lka, ne ajab, boqdim, nogoh, zamin, uzra, bashar, qay, siyna, yuksak, boqib, munis, yiroqlab, bitib, fido, tiyra, hayolot, ozor, judolik, ila, nasr, pinhona, tug‘yon, tanho, shaydo, qoshimda, ummon, diyor, shavu, otash, ajib, quyoshiston, yanglig‘, xutloiy, ul, aylab, maskan, navo, fido, rangin, chaman, bamisli, surur, naqadar, samo, balqib, lol, samovot, xushnud, sarafroz, sado, nido, aro, otashin, nigoron, sabo, zavol, moviy, shodon, bashariyat, lojuvard, jon baxsh, karashma, malak, pari, sanam, visol, sukunat, munis, jilvakor, fusunkor, parivash, ovush,*





barkamol, nigor, iqbol, nahot, sokin, osuda, xilqat, lolagun, faraxu samar, abadiyat, lek, qayon, nechun, ne, neki, nechog'lik, chumgan, mohitobon, koshona, ishvanoz, xiom, dilband, davo, nurafshon, diltang, fido, sarafroz, ichra, kanora, jonfizo, ko'ks, sabot va boshqalar. Shoir ijodini o'rganish davomida, uning mumtoz adabiyotning nozik jabhalarini chuqur bilishi va o'z ijodida samarali qo'llay olganligini guvohi bo'lishimiz mumkin. Bu jihat yuqorida sanalgan poetik leksikaning qo'llanilishidan ham guvoh bo'lishimiz mumkin. Bularning ko'pi ramziylikni ifodalashi bilan poetiklikni yuzaga keltiradi yoki ramziylik asosi shu leksemaning poetikligini ta'minlaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Умуркулов Б. Поэтик нутқ лексикаси. – Тошкент: Фан, 1990. – 109 б.
2. Умурув Ҳ. Адабиётшунослик назарияси. – Тошкент: А.Қодирий номидаги халқ мероси нашриёти, 2004. – Б. 184 (264 б)
3. Усмонов С. Умумий тилшунослик. – Тошкент: Ўқитувчи, 1972. – Б. 22.
4. Хованская З.И. Анализ литературного произведения в современной французской филологии. – Москва: Высшая школа, 1980. – С. 99.
5. Шаропов А. Оламлар ичра олам. –Тошкент: Фафур Ғулом номидаги адабиёт ва санъат нашриёти, 1978. – В. 120
6. Эркин Воҳидов. Ишқ савдоси. –Т.: Шарқ, 2000. – Б. 359.

Lug'atlar

1. Mahmudov N. O'zbek tili sinonimlarining kaeta izohli lug'ati. II jild. – Toshkent, G'afur G'ulom, 2022. – 489 b
2. O'zbek tilining izohli lug'ati". – Toshkent: O'zbekiston milliy ensiklopediyasi, 2006, 1-5 jildlar
3. Куронов Д. Адабиётшунослик луғати. – Тошкент: Академнашр, 2010. – Б. 345.
4. Ўзбекистон миллий энциклопедияси. Биринчи жилд. – Тошкент: Ўзбекистон миллий энциклопедияси, 2006. – 346-б
5. Ҳожиёв А. Тилшунослик терминларининг изоҳли луғати. – Тошкент: Ўзбекистон Миллий энциклопедияси, 2002. – Б. 143
6. Ҳожиёв А. Ўзбек тилининг синонимлар луғати. – Тошкент, 1974. – Б. 91

